

Bo'lim boshlig'i:

Redjepov Shavkat Baxtiyarovich

Qabul vaqti:Seshanba – Payshanba (15:00-17:00 gacha)

Telefon: (0 371) 238-64-25

E-mail: sh.redjepov@tuit.uz

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi:

Sobirov Muzaffar Azatovich

Qabul vaqti:Dushanba – Payshanba (13:00-17:00 gacha)

Telefon: (0 371) 238-64-29

E-mail: muzaffar-sobirov@mail.ru

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi:

Sobirov Hamidullo Habibulloyevich

Qabul vaqti:Dushanba – Payshanba (13:00-17:00 gacha)

Telefon: (0 371) 238-64-29

E-mail: hhsobirov@gmail.com

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi haqida

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017-yil [20-apreldagi PQ-2909-son qarori](#) talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko'tarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [2017-yil 18-iyuldagi 515-sonli qarori](#) qabul qilindi.

Ushbu qarorning 14-bandiga muvofiq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tarkibida Davlat inspeksiyasi boshlig'i tavsiyasiga asosan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan 3 nafar (bo'lim boshlig'i va 2 nafar bosh mutaxassis) xodimdan iborat “Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi” bo'limi tashkil etildi.

Bo'limga universitet talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib boorish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish hamda universitetni ichki atteastatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va ichki attestatsiya natijalarini, ta'lim sifatiga ta'sir etgan omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni universitet rektoriga hamda Davlat inspeksiyasiga taqdim etish yuklatildi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi nizomi tasdiqlandi. Universitetda ta'lim sifatini nazorat qilish boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanib, uning asosiy vazifasi ta'lim sifatini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va universitetdagi o'quv jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida nazoratni tashkil etish bo'yicha maqsadli va kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi o'z faoliyatida bevosita universitet rektoriga bo'ysunadi.

Bo'limning asosiy vazifalari va funksiyalari:

Bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim yo`nalishlari va mutaxassisliklarning davlat ta'lim standartlari (DTS), malaka talablari, o`quv rejalari va fan dasturlari bilan ta'minlanganligini tahlil etish va ularni ekspertiza qilish;
- ta'lim jarayoni sifatini, uning o`quv adabiyotlari va o`quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlanganlik darajasini o`rganish;
- talabalari bilimlarining DTSga muvofiqligini o`rganib borish, tahlil qilish;
- ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash;
- kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish;
- ichki attestatsiyadan o`tkazishni tashkil etish, natijalari bo`yicha ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ma'lumotlarni universitet rektoriga hamda Davlat inspeksiyasiga taqdim etish;
- attestatsiya, ta'lim sifatini o`rganish bilan bog`liq jarayonlarda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o`z vaqtida bartaraf etilishi ustidan nazorat o`rnatish;
- ta'lim sifatini belgilovchi ko`rsatkichlarning holatini monitoring qilish va aniqlangan muammolar va kamchiliklar yuzasidan tegishli tarkibiy tuzilmalarga takliflar berish;
- ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o`qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida zamonaviy usullar va uslublardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- professor-o`qituvchilari tayanch ma'lumotlarining tegishli dars beradigan fan(lar)iga mosligini tahlil qilish yoki ularning tegishli qayta tayyorlashdan o`tganligini yoki mos ixtisoslik bo`yicha ilmiy unvon, darajaga ega ekanligini o`rganish va xulosalarni universitet rektoriga ma'lum qilish;
- o`quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-uslubiy ishlar rejalarning bajarilishini monitoring qilish;
- ta'lim jarayoni moddiy-texnik bazasi holatini tahlil qilish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo`yicha takliflar berish;
- talabalar amaliyotining ta'lim yo`nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olingan holda tashkil etilganligini va uning samarasini nazorat qilish;
- Davlat inspeksiyasining topshirig`iga binoan universitet reytingini aniqlashga va baholashga oid ma'lumotlarni to`plashda, o`tkaziladigan attestatsiya va ta'lim sifatini o`rganish bilan bog`liq jarayonlarda ishtirok etish;
- talabalar bilimini baholash jarayonini tahlil qilish asosida reyting ballarining xolisligini, shaffofligini va sifat darajasini baholash va boshqa bir qancha vazifalar yuklatilgan.

[Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi nizomi](#)

[Talim sifatini nazorat qilish bo'limi ish rejasi](#)